



# OLIY TA'LIMDA MUASSASALARIDA TA'LIMNING SIFATI VA TARBIYAVIY AHAMIYATINI OSHIRISHGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH

*Urganch innovatsion universiteti “Ijtimoiy gumanitar fanlar va pedagogika” fakulteti Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 23/08 guruhi talabasi*

**Sharipova Mukaddas Madraximovna**

**Annatatsiya:** Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalarida ta’limning sifati va tarbiyaviy ahamiyatini oshirishga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish yuzasidan fikrlar yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Ta’lim, tarbiya, ta’lim sifati, innovatsion texnologiya, axborot-kommunikatsiya, aksiologiya, kreativlik, refleksiya, sun’iy intellekt.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются вопросы совершенствования использования образовательных технологий, направленных на повышение качества обучения и воспитательного значения в высших учебных заведениях.

**Ключевые слова:** Образование, воспитание, качество образования, инновационная технология, информационно-коммуникация, аксиология, креативность, рефлексия, искусственный интеллект.

**Annotation:** This article discusses the improvement of the use of educational technologies aimed at enhancing the quality of education and its educational significance in higher education institutions.

**Keywords:** Education, nurture, quality of education, innovative technology, information of communication, axiology, creativity, reflection, artificial intelligence.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 7-fevral 2017-yil farmoni bilan “2017-2021-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”ni ishlab chiqilishi ayniqsa ta’lim sohasini davlat siyosatida ustuvor o‘rin tutishi bilan birga keng jamoatchilik



ishtirokini ham talab qilishiga alohida e'tibor qaratadi. To'rtinchchi yo'naliш ijtimoiy sohani rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, bunda ta'lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san'at va sport sohalarini rivojlantirish va yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish bilan birga ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish hamda ilmiy tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga keng joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o'quv yurtlari va ilmiy tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental labaratoriylar, yuqori texnologiya markazlarini tashkil etish haqida alohida uqtirib o'tildi.[1]

Hozirgi kunda ta'lim va tarbiyaning sifatini oshirish dolzARB masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Ta'lim va tarbiya o'zaro chambarchas hisoblanadi. Ta'lim insonning aqliy rivojlanishiga xizmat qilsa, tarbiya uning axloqiy va shaxsiy kamolotini ta'minlaydi. Ta'lim-ta'lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko'nikmalar berishga, shuningdek ularning umumta'lim va kasbiy bilim malaka hamda ko'nikmalarni shakillantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon.[2]

Tarbiya- aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tamonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma'naviy axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakillantirishga qaratilgan tizimli jarayon. Ta'lim sifati-ta'limning ijtimoiy majmui, jarayon va natija sifatida shaxs, jamiyat va davlat ehtiyojlari va manfaatlariga muvofiqligi; inson kamoloti ehtiyojlarini qondirish imkoniyatini ta'minlovchi ta'lim xizmatlari iste'mol xususiyatlarining majmui.

Ta'lim sifatini aniqlovchi asosiy omillar:

- ta'lim muassasasining intellektual-manaviy salohiyati;
- pedogoller tarkibi;
- o'quv-metodik ta'minot;
- moddiy-texnik ta'minot;
- o'quvchi bitiruvchilar.[3]



Ta’lim-tarbiya tizimida hamda pedagogika fanida innovatsion texnologiya tushunchasi qo’llanilmoqda.

Innovatsion texnologiyalar- bu ta’lim samaradorligini oshirish uchun qo’llaniladigan hamda pedagogik nazariyasi va amaliyotining barcha sohalari bilan bog’liq bo’lgan o‘qitish usullari, vositalari, yondashuvlar, konsepsiylar, g’oyalarning ta’lim-tarbiyaviy yo‘naltirishlar va o‘quv fanlari bo‘yicha o‘zaro birikishidir.Innovatsion texnologiya asosida tashkil etilgan darslar, ularda qo’llaniladigan tashkiliy usullar va o‘tkazish metodlariga ko‘ra o‘quvchi ehtiyojiga mos bo‘lishi lozim, shunda bu darslar bola ruhiyatiga yaqin bo‘lib, uning darsdagi faolligini va shu orqali dars samaradorligini oshirish imkoniyatini beradi. O‘quv-tarbiya jarayoniga yangiliklarni kiritib borishda o‘quvchi faolligini oshirish ta’lim sifatini oshirishning samarali vositasi hisoblanadi.

Hozirda ilg’or pedagogik texnologiyalarni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarisiz tasavvur qilish qiyin bo‘lib bormoqda. Ular uzlusiz ta’limning barcha turlarida, o‘qitishning zamonaviy darajada bo‘lishini ta’minalashda alohida o‘rin tutadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta’lim tizimidagi jiddiy ahamiyatini hisobga olgan holda hozirgi kunda ta’lim muassasalarining resurs, kadrlar va axborot bazalarini yanada mustahkamlash, o‘quv tarbiya-jarayonini yangi o‘quv-uslubiy majmular, ilg’or pedagogik texnologiyalar bilan ta’minalash bilan bir qatorda ta’lim tizimini axborotlashtirish, uni jahon axborot tarmog‘iga ulanadigan kompyuter axborot tarmog‘i bilan to‘liq ta’minalash jarayonlari bormoqda.

Innovatsion pedagogik jarayonning eng muhim yo‘nalishlaridan biri o‘quvchi-talabalarning bilish faoliyatini rivojlantirish. Bunday yo‘nalish o‘quvchi-talabalarning o‘quv jarayonini faollashtirishni, ularning kasbiy ixtisoslashishini aniqlab olish faolligini o‘z ichiga oladi.Talabalarning innovatsion faoliyatini yaratuvchilik jarayoni va ijodiy faoliyat sifatida baholash mumkin. Innovatsion faoliyatga aksiologik yondashuv insonning o‘zini yangilik yaratish jarayoniga baxshida qilishi u tomonidan yaratilgan pedagogik qadriyatlar yig‘indisini anglatadi. Aksiologiya insonga oliy qadriyat va ijtimoiy taraqqiyotning birdan-bir mzaqsadi



sifatida qaraydi. o‘qituvchining innovatsion faoliyati tuzilmasi kreativlik va refleksiya komponentlaridan iborat. O‘qituvchi innovatsion faoliyatining eng muhim tavsifi kreativlikdir.[4]

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkunki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng qo‘llanilishi ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish bilan birga, talabalar uchun mustaqil bilim olish imkoniyatlarini ham kengaytiradi. Shu bilan birga, ta’lim va tarbiya o‘zaro chambarchas bog’liq bo‘lib, texnologiyalar faqat bilim berish emas, balki talabalarning ma’naviy va axloqiy kamolotiga ham xizmat qilishi lozim. Oliy ta’lim tizimida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va sun’iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish ta’lim sifati va tarbiyaviy ahamiyatini sezilarli darajada oshiradi. Bu esa kelajakda intellektual salohiyatlari, texnologik jihatdan ilg’or, ma’naviy yetuk va innovatsion fikrlaydigan kadrlarni tayyorlashga zamin yaratadi. Sun’iy intellektdan darslarni avtomatlashtirish, bilim darajasini tahlil qilish, baholash jarayonini osonlashtirish va ta’lim samaradorligini oshirishda foydalanish muhimdir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.**

1. Mirziyoyev Sh. M. “2017-2021-yillarda o‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harkatlar strategiyasi”.2017-yil 7-fevral.
2. Sh.S.Shodmonova, G.N.Ibrogimova, F.O.Mirzayeva, M.E.Gapparova. Pedagogika nazariyasi va tarixi.- T.: 2022-yil, 8-bet.
3. Жуманова Ф., Авазова С., Жобборова Г., Хуснетдинов У.Умумий педагогика асослари. Укув-услубий кулланма. -Тошкент,”ISHONCHLI HAMKOR”,2021. 267-bet.
4. SH.S.Shoyimova, M.K.Xoshimova, SH.R.Mirzayeva,M.M.Qo‘ziboyeva.Ta’lim texnologiyalari-Darslik. -T.:”IJOD-PRINT”,2020 43-bet.